

BANKDA TOVAR-PUL VA KREDIT MUNOSABATLARI

Xojibekova Madina Ulug'bek qizi

Toshkent Moliya Instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada banklar paydo bo`lishining asosi, bankirlar, kredit tizimi, valyuta ayirboshlash, omonatchilarga hisob-kitob xizmatlari ko`rsatish, mablag'larni jalb qilishi, jahon amaliyotida kredit tizimi o`zining tashkil qilinish turiga qarab guruhlariga bo`linishi, tijorat muassasasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Banklar, tovar-pul, ijtimoiy-iqtisodiy, puldor, mablag', ayirboshlash, hisob-kitob, valyuta.

Annotation: In this article, the basis for the emergence of banks, bankers, what language the word bank is derived from and what it means, the credit system, currency exchange, the provision of settlement services to depositors, attracting funds, in world practice The credit system is divided into groups depending on the type of organization, detailed information about the commercial institution.

Keywords: Banks, commodity-money, socio-economic, money, money, bancherii, exchange, settlement, currency.

Аннотация: В данной статье основы возникновения банков, банкиры, из какого языка произошло слово банк и что оно означает, кредитная система, обмен валюты, оказание расчетных услуг вкладчикам, привлечение средств, в мировой практике. Кредитная система разбита на группы в зависимости от типа организации, подробной информации о коммерческом учреждении.

Ключевые слова: банки, товарно-денежные, социально-экономические, кассир, деньги, банчерии, обмен, расчет, валюта.

Maqolamda avvalombor bankning o'ziga ta'rif berib o'taman, banklar paydo bo'lishining asosi tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovarpul munosabatlarining bo'lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda banklarning ham bo'lishini taqozo qiladi. Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqda davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o'z bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan korxonalariga berishgan va pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan. Shunday ekan, hozirda banklar o'z mijozlarini monetalar tarkibi buzulishidan zarar ko'rishdan himoya qilishadi. Ular o'z hisoblarni ma'lum summadagi qimmatbaxo metallni ifodalovchi maxsus pul birligida olib borishadi va o'zlarining bo'sh pul mablag'laring ijrobanklar davlatga qarzga, shaharlarga, chet el savdogarlariga berishadi. Banklar valyuta ayirboshlash operatsiyalaridan tashqari, odamlarning pul boyliklarini saqlash va omonatchilarga hisob-kitob xizmatlari ko'rsatish bilan ham shug'ullanishadi. Bankirlar shu narsani tushundiki, bankda harakatsiz yotgan pullarni ma'lum foiz evaziga berib daromad olish mumkin. Shu tariqa banklarning kredit operatsiyalari yanada rivojlanib kelinmoqda. Banklarning kelib chiqishi va rivojlanish ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar va talablarning oshishi, savdo kapitali aylanishining tezlashuvi bilan bog'liq bo'ladi. Natural xo'jalik munosabatlarining tugashi savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi pullik hisob-kitoblar olib borishga, kreditning rivojlanishiga yo'l ochdi. Ishlab chiqarishni rivojlantirish yollanma mehnatni jalb qilishga olib kelindi. Yollanma mehnat uchun xalqning pul shaklida to'lanishi, doimiy pul aylanishini yuzaga keltirdi. Pul aylanishini esa bank tomonidan boshqarish zarur. Shunday qilib, banklar faoliyat ko'rsatib kelmoqda va ular mablag'larni yig'ish va taqsimlash orqali kapitali harakatini yanada boshqarib kelinmoqda. Ssuda kapitalistidan farqli o'laroq bankir tadbirkor sifatida ish olib boriladi.

Kredit tizimi bu kredit munosabatlar majmuasi va kredit munosabatlarni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi kredit institutlar yig'indisiga deb tushunamiz. Kredit tizimi orqali huquqiy va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh mablag'lari yig'iladi

va korxonalar, tashkilotlarga, davlatga vaqtincha foydalanishga beriladi. Kredit tizimi bir necha bo'g'inlardan iborat bo'lishi mumkin. Mablag'larni jalb qilishi va taqsimlanishiga qarab kredit tizimi bo'g'inlari o'z xususiyatlariga ega qiladi. Markaziy bank, bank institutlari va nobank kredit muassasalaridir. Bank institutlariga quyidagi banklar kiradi:

- tijorat banklar;
- investitsiya banklari;
- jamg'armalar jalb qiluvchi banklar (O'zbekistonda Xalq banki);
- ipoteka banki;
- savdo banklari
- tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha banklar;
- tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashgan banklar va boshqalar.

Nobank kredit tashkilotlarga:

- investitsiya kompaniyalari;
- sug'urta kompaniyalari;
- nafaqa va boshqa fondlar kiradi.

Banklar - tovar-pul xo'jaligining ajralmas atributidir. Tarixan bular yonma-yan rivojlanib keldilar. Shuning uchun qiymatning pul shaklining muomalasining boshlanishi bank ishining boshlanishi deb hisoblash, hamda bank faoliyatining rivojlanishidagi yetukligi doimo iqtisodiyotdagi tovar-pul aloqalarining rivojlanish darajasiga mos kelgan. Shuningdek, O'zbekiston Markaziy banki va Moliya vazirligi 2024-yildan kechiktirmay Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki dasturi (FSAP) asosida moliyaviy sektor holatini baholashni o'tkazishi amalga oshiriladi. Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir qismi bo'lgan kredit tashkiloti bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'larini jamg'rish, yig'ish, jamlangan (akkumulatsiya qilingan) mablag'larni o'z nomidan qaytarib berishlilik, muddatlilik asosida berish xamda mijozlarning topshirig'iga ko'ra, to'lovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar. Kredit - bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi - iqtisodiy islohatlarni amalga oshirilishining ajralmas belgilaridan (xususiyatlaridan) biridir. Bu shu bilan

ta`kidlanadiki, bank tizimi xar qanday turdagi iqtisodiyotning markaziy tizimini tashkil qiluvchi unsurlaridan hisoblanadi. Bank tizimi vaqtinchalik bo`sh turgan pul mablag`larini akkumulyatsiya qilish funksiyasini amalga oshiradi. Bank tizimining muvoffaqiyatli ishidan iqtisodiyotni samarali faoliyat ko`rsatishi, umuman olganda mamlakatdagi iqtisodiy o`sinh bog`liq bo`ladi.

Xulosa. Zamonaviy iqtisodiy birlashmadan organik yaxlitlikka aylanishidir. Bunday iqtisodiyotda uning aloqalari orasidagi bog`liqlik ichki xususiyatga ega bo'ladi, bu esa ular orasidagi doimiylik va tizimli almashishni talab qiladi. Va shu borada aytib o'tmoqchimanki, 2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o`rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo`nalishlarini belgilab berdi. Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko`p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog`liq. Shundan kelib chiqib, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta bozorini liberallashtirish bo`yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to`g`risida”gi Farmoni e`lon qilinishidan ko`p o`tmay O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qarori qabul qilindi va Pul-kredit siyosatini 2017-2021 yillarda rivojlantirish va inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o`tish bo`yicha chora-tadbirlar Kompleksi tasdiqlandi. Shunday ekan, ichki bozorda narxlar barqarorligini ta`minlash vazifasi pul-kredit siyosatini amalga oshirishning aniq strategiyasi va batafsil rejasi bo`lishini hamda maqsadli ko`rsatkichlarga erishish uchun samarali instrumentlar va mexanizmlarni talab etadi. O`z navbatida, ichki valyuta bozorida muammolarni yuzaga keltirib, samarali pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyatlarini pasaytirdi. Bundan tashqari, pul-kredit instrumentlaridan foydalanishning passiv rejimi monetar targetlashni samarali qo`llashda qo`shimcha qiyinchiliklar tug`dirdi. Pul-kredit siyosatini amalga oshirish va rivojlantirish bo`yicha ushbu Konsepsiya o`z ichiga 2018-2021 yillar uchun mo`ljallangan chora-tadbirlar “yo`l xaritasi”ni qamrab oldi. Mazkur yo`l

xaritasini ishlab chiqishda asosiy e'tibor inflyatsion targetlashning mexanizm va tamoyillarini o'rta muddatli istiqbolda samarali joriy qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha choralarni amalga oshirishga qaratilib kelmoqda. 2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, shuningdek, Jahon bankining mamlakat bank tizimi joriy holatini o'rganish natijalari bo'yicha asosiy xulosalari va tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Strategiya bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020 — 2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash yo'llarini belgilaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Lomakin V.K.Mirovaya ekonomika.Uchebnik dlya studentov vuzov.— M.. YUNITI-DANA. 2012.671 st.
2. Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets (Global edition 11th Edition)(Den'gi, kredit i banki). Pearson. United Kingdom, 2015
3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 05.11.2019 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Xalq so'zi. 09.12.2019 y.
5. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni. 22.10.2019 y.
6. “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori 2019 yil dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 yillik strategiyasida «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori 12.05.2020 yil.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillar Harakatlar strategiyasi” 2017 -yilning 7-fevralidagi PF-4947 sonli qarori.
9. Abdullayeva Sh.Z, Safarova Z. Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish. T.:Iqtisod-Moliya.
10. Omonov A., Bank ishi. Darslik. T.:“Moliya”2019 y.
11. Abdullayeva Sh., Pul va banklar. Darslik. T.: "Moliya" 2019 y.
12. A.A.Omonov., T.M.Qoraliyev., Pul va banklar. Darslik. T.:”Moliya”

Internet saytlari.

1. <http://www.google.com> “Ma'lumotlar qidiruv sayti”
2. <http://www.stat.uz> Davlat Statistika qo'mitasining sayti
3. www.bank.uz
4. www.lex.uz
5. www.uba.uz
6. www.cbu.uz <http://www.cbu.uz> – O'zR MBning rasmiy veb-sayti;
7. www.nbu.uz.
8. www.kun.uz